

MADAT BOBO HAYOT YO'LI: HALOL MEHNAT, MA'NAVIY MEROS VA AVLODLAR DAVOMIYLIGINING YORQIN NAMUNASI

Dilnura Madatova Iskandar qizi

ISFT (International School of Finance and Technology)

Xorij tili adabiyoti va ingliz tili 1-Kurs talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani Chagatoy qishlog'ida yashagan Madat boboning ibratli hayot yo'li yoritilgan. Unda nuroniy otaxonning halol mehnatga asoslangan turmush tarzi, dehqonchilik va chorvachilik faoliyati, saxovatpeshaligi, muruvvati hamda jamiyat hayotidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, Madat boboning farzandlari va nevaralarini milliy qadriyatlar, mehnatsevarlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi o'rni ochib beriladi. Maqola yosh avlodni ma'naviy yetuklik, halollik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda bunday insonlarning hayotiy tajribasi muhim ahamiyat kasb etishini asoslaydi.*

Kalit so'zlar: *Madat bobo, ibratli hayot, halol mehnat, mehnatsevarlik, ma'naviy meros, oila tarbiyasi, avlodlar davomiyligi, milliy qadriyatlar, nuroniy otaxon, qishloq hayoti.*

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida jamiyatning ma'naviy poydevorini mustahkamlash, yosh avlodni halollik, mehnatsevarlik va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada xalqimiz orasida yashab, o'zining ibratli hayoti bilan el-yurt hurmatini qozongan nuroniy insonlar hayoti katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shunday insonlardan biri Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani Navkat mahallasiga qarashli Chagatoy qishlog'ida yashab kelayotgan Madat bobodir.

Navkat mahallasi o'zining betakror tabiati, zilol suvlari va serhosil bog'lari bilan mashhur bo'lish bilan birga, mehnatkash va samimiy insonlari bilan ham ajralib turadi. Aynan shu muhitda kamol topgan Madat bobo yoshligidan halol mehnatni hayotining bosh mezoni qilib olgan. U kishi dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanib, oilasining rizqini pok va halol yo'l bilan topib kelgan.

Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumani, Navkat mahallasi – nafaqat o'zining betakror tabiati, zilol suvlari, serhosil bog'lari bilan, balki mehnatkash, samimiy va oqko'ngil insonlari bilan ham dong'i ketgan. Ayniqsa, bu go'zal zaminning Chagatoy qishlog'ida Madat bobo degan bir inson yashaydi. Uning ismi nafaqat qishloqda, balki butun Qo'shrabot tumanida, hatto Samarqand viloyatida ham hurmat va ehtirom bilan tilga olinadi. Madat bobo – o'zining ibratli hayoti, tinimsiz mehnatsevarligi, benuqson halolligi va cheksiz oqko'ngilligi bilan el-yurtning mehrini qozongan chinakam nuroniy otaxon.

Madat boboning hayoti chin ma'noda bir ibrat maktabidir. Uning qo'lidan chiqqan har bir mahsulot sifati, tozaligi va halolligi bilan ajralib turgan. U nafaqat o'z oilasi, balki butun qishloq ahli uchun doimo yordamga tayyor bo'lgan. Saxovatpeshaligi va muruvvati tufayli ko'plab oilalar og'ir vaziyatlardan yengil chiqishga muvaffaq bo'lgan.

Madat boboning hayoti – bir doston, bir ibratmaktabi. U kishi yoshligidan boshlab halol mehnat qilib, oilasining rizqini tergan. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik bilan shug‘ullanib, ro‘zg‘orini to‘kis qilgan. Uning qo‘lidan chiqqan har bir mahsulot – sifati, tozaligi, halolligi bilan ajralib turgan. Madat bobo nafaqat o‘z oilasiga, balki butun qishloqqa, mahallaga, tumanga yordam berishga doim tayyor turgan. Uning saxovatpeshaligi, muruvvati tufayli ko‘plab oilalar qiyinchiliklardan oson o‘tgan.

Madat boboning birgina suyukli qizi va besh nafar o‘g‘li bor. Farzandlari ham otasiga munosib, el-yurtga sidqidildan xizmat qilib, ota-onasining duosini olib, umr kechirmoqdalar. Ular ham otasining kasbini davom ettirib, dehqonchilik, chorvachilik, bog‘dorchilik bilan shug‘ullanishadi. Farzandlarining har bir yutug‘i – Madat boboning ko‘ksini tog‘ qilib, g‘ururga to‘ldiradi. Ular ham otasidan o‘rnak olib, halol mehnat qilishadi, el-yurtga naf keltirishadi.

Madat boboning 19 nafar nevarasi bor. Nevaralarining quvonchi, ularning erishayotgan yutuqlari Madat boboning nurlil ko‘zlarida aks etadi. Nevaralari – uning kelajagi, umid bog‘i, hayotining mazmuni. Ular ham bobosining pand-nasihatlariga amal qilib, bilim olishga, hunar o‘rganishga, zamonaviy kasblarni egallashga intilishadi. Madat bobo nevaralarining har biri bilan cheksiz faxrlanadi. Ularning kelajakda yurtimizga xizmat qiladigan, el-yurtning obro‘yini ko‘taradigan insonlar bo‘lishiga ishonadi.

Madat bobo Chagatoy qishlog‘ining chinakam faxri, timsoli. Uning ibratli hayoti, mehnatsevarligi, halolligi, oqko‘ngilligi, saxovati, muruvvati, farzandlari, nevaralari – barchasi shu qishloqning, shu tumaning bebaho boyligi. Madat bobo kabi insonlar bor ekan, yurtimizning kelajagi doimo porloq bo‘ladi. Uning ibratli hayoti, mehnatsevarligi va oqko‘ngilligi – yosh avlod uchun doimiy namuna bo‘lib qoladi. Madat bobo – nafaqat o‘z oilasining, balki butun qishloqning, butun tumaning suyanchig‘i, g‘ururi. Uning duosi – qishloq ahli, tuman ahli uchun eng katta baxt, eng katta omad. Madat boboning hayoti – avlodlarga o‘rnak bo‘ladigan, asrlar osha yashaydigan bebaho merosdir.

MUHOKAMA

Madat bobo shaxsiy namunasi orqali halol mehnat, ma‘naviy meros va avlodlar davomiyligi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yaqqol namoyon etadi. Uning hayoti shuni ko‘rsatadiki, ma‘naviy qadriyatlar oiladan boshlanib, jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Bunday insonlarning hayotiy tajribasi yosh avlod tarbiyasida bebaho manba hisoblanadi.

XULOSA

Madat bobo Chagatoy qishlog‘ining, Navkat mahallasining va butun Qo‘shrabot tumanining chinakam faxridir. Uning ibratli hayot yo‘li, halol mehnatga sodiqligi, saxovatpeshaligi va avlodlar tarbiyasidagi o‘rni bugungi yoshlar uchun muhim hayotiy darsdir. Madat bobo kabi insonlar bor ekan, jamiyatimizda ma‘naviy barqarorlik va avlodlar davomiyligi ta‘minlanadi. Uning hayoti asrlar osha yashaydigan, kelajak avlodlar uchun o‘rnak bo‘ladigan bebaho merosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Abdullayeva Sh.Sh. Ma’naviy tarbiya va oila qadriyatlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Jo‘rayev R.X. Oila, mahalla va jamiyat hamkorligi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
4. Musurmonova O. Milliy qadriyatlar asosida yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018.
5. Qodirov V. O‘zbek xalqining urf-odatlar va an’analari. – Toshkent: Sharq, 2016.
6. Sattorov A. Qishloq hayoti va mehnat madaniyati. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2017.
7. To‘raqulov B. Halol mehnat va inson kamoloti. – Toshkent: Istiqlol, 2015.